



OROL DENGIZINING QURIGAN MOYDANLARIDA TARQALGAN ORTA OSIYO CHÓL TOSHBOQASINING BIOEKOLOGIK XUSISIYATLARI

Berdanov Dastanbek Turǵanbay uli

Qoraqalpoq davlat universiteti stajyor oqituvshisi,

Genjebaev Miyras Sársenbay uli

Qoraqalpoq davlat universiteti stajyor oqituvshisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8113233>

ARTICLE INFO

Received: 24th June 2023

Accepted: 29th June 2023

Online: 30th June 2023

KEY WORDS

Gerfetofauna, endemik, mozaik, biogeosenoz, adaptatsiya, ekologiyaliq faktorlar, karapaks, plastron, fauna, konvensiya, efemerlar.

ABSTRACT

Hozirgi davrda Orol dengizi muammosi global muammo bólishidan qat'iy nazar, uning qurigan maydonlarida óziga xos gerpetofaunaniń rivojlanganini kórishga bóladı. Katta maydonlarda noqulay ekologik sharoitga moslashgan endemik va mozaik tarqalgan sudralib yuruvshi hayvonlarni u yerda uchratishingiz mumkin. Buham tabiatning óziga xos tirik jonzoti hisoblanadi. Shulardan keng maydonda, ekologik omilning bevosita tásiriga chidamli bólgan chól toshbaqasi óziga xos bólgan biologik, fiziologik xususiyatlarini aytib ótsak bóladı. U yerdagi namlikning kamligi, suvning yetishmovchiligi va tuproqtıń tuzliligi boshqa hayvonlarning yashashi uchun júda noqulay muhitdir. Bu maqolada biz órgangan chól toshbaqasining biogeosenozdagi órni, morfo-fiziologiyaliq xossalari va muhitga adaptatsiyasın órganamiz.

Sudralib yuruvchilarning óziga xos tuzilishga ega kóplab qiziqishlar va muhokamalarga sabab bóladigan vakillari hisoblangan toshbaqalar sayyoramizdagi ajabtovur jonivorlar sirasiga kiritiladi. Olimlarning fikricha, tabiatda toshbaqalarning óziga xos órni bor. Ular boshqa jonivorlar singari oziq zanjirining muhim bóginidan biridir. Uning inson hayotidagi órnini esa qadimdan kuzatish mumkin. Odamlar toshbaqalarning góshini iste'mol qilib, kosasidan uy-rózgór buyumlarini yasashgan. Toshbaqalar eng qadimgi jonivordan biridir. Ular ikki million yil ilgari paydo bólib, hozirgacha tashqi kórinishi deyarli ózarmagan. Ilk paydo bólgan davrlarda Yer yuzida ularning 20 dan ortiq turi yashagan bólsa, hozir sayyoramizda toshbaqaning 14 ta turi mavjud. Chól toshbaqasi tabiatda dasht ósimliklari, mevalar, sabzavot va poliz ekinlari bilan oziqlanishadi.

Sudralib yuruvchilarning turlari kóp bólganligi (6300 tur) va Yer yuzida keng tarqalganligi uchun tabiatda va inson hayotida amfibiyalarga nisbatan katta rol óynaydi. Kópchilik kaltakesaklar va ilonlar zararkunanda hasharotlar, mollyuskalar va kemiruvchilarni kóplab qirib, qishloq xójaligiga foyda keltiradi. Kópgina kaltakesaklar tulki, sassiqqózan kabi ovlanadigan muhim darrandalarga yem bóladı. Mayda kemiruvchilar bilan oziqlanadigan zaharsiz ilonlarni bázi joylarda (Amerika, Janubiy Osiyo, Afrika) uylarda mushuk órniga saqlaydilar. Sudralib yuruvchilarning bázi turlari anchagina zarar keltiradi,



Órta osiyo chól toshbaqasi polizlarga, pista ekinlariga va don ekilgan maysazorlarga ziyon keltiradi. Bu toshbaqalar yana temiryól va sug'orish inshootlarini kovlab tashlaydi. Baliq yetishtiradigan xójaliklarda suvilonlari yosh baliqlarni yeb, málum darajada zarar etkazadi. Quruqlikda yashovchi toshbaqalar, bázi kaltakesak va ilonlar odam va uy hayvonlariga ayrim yuqumli kasalliklarni tarqatadi, chunki shu turlarda kasallik yuqtiradigan kanalar yashaydi.

Gerpetologiya – zoologiyaning sudralib yuruvchilar (ilon, toshbaqa, kaltakesak va boshqalar) va amfibiyalar (baqa va qurbaqalar) sinflarini órganuvchi bólimidir. Gerpetologlar hayvonlarning turlari yoki hatto guruhleri bóyicha ixtisoslashadi. Kadrlar yetishmasligi tufayli olimlar tor ixtisoslik bilan cheklanib qolmasdan, barchasi bilan: sudralib yuruvchilar ham, suvda va quruqlikda yashovchilar bilan ham shuǵullanadilar

Sudralib yuruvchilarning toshbaqalar turkumi óziga xos tuzilishga ega hayvonlar hisoblanadi. Ular ahamiyatli jonivorlar bólib bázi zarar keltiruvchi turlari bólsada málum sohalarda foydalaniladi. Jumladan uy hayvonlari sifatida ham boqiladi. Bundan tashqari oziq-ovqat mahsulotlaridan biri ham hisoblanadi. Toshbaqalarni AQSh, Yevropa, Yaponiyaning zoodókonlari hamda restoranlari xarid qilishadi. Xalqimiz orasida esa bu hayvonlarni óziga xos hosiyatli deb hisoblashgan. Ularga ozor bermaslikni uqtirishgan. Bu jonivorlar qadimgi xalq eposlarida sabrli, mas'uliyatli, yaxshi insonlar obrazida kelganini ham kórishimiz mumkin. Bunga sabab ularning harakatlarida tajavuzkorlik yóqligi, sekin harakatlanishidir. Ularning óziga jalb etuvchi xususiyati tanasini tashqi tomondan qoplab olgan kosalari bólib, u toshbaqa hayotida juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Sónngi yillarda ularga qiziqish va talab ortganligi sababli bázi turlar soni kamayib muhofazaga olinishga majbur bóldi. Aytish joizki, málum kattalikdagi jonivorlar tutilib eksportga olib chiqiladi, inlaridagi tuxumlar yigib ketiladi. Markaziy Osiyoning boshqa Respublikalarida toshbaqalar soni keskin kamaygani sababli Qozog'iston 2003, Tojikiston 2009 yildan ularning eksportini taqiqlangan. Ózbekistonda esa bu jarayon hanuz davom etmoqda. Masalan, 2000 yilda 3500 ta toshbaqa tashqariga olib chiqib ketilgan bólsa, 2015 yilda ularning soni 50 mingtaga yetdi. Shuningdek, pitomniklarda óstiriladigan toshbaqalar eksporti esa 2003 yilda 5 mingta, 2015 yilda 45 ming donani tashkil etdi. Eng yomoni, yuqorida qayd etilganidek, málum kichikroq hajmdagi toshbaqalar eksportga yónaltiriladi. Erkak toshbaqalarning hajmi urgóchisidikidan kichikroq bólganligi sababli, qonuniy va noqonuniy savdo tóriga aynan ular tushadi. Oqibatda faqatgina urgóchi toshbaqalarning qolishi ularning keskin kamayiga sabab bóldi. "Qush bozorlari"da tabiat qóynidan noqonuniy terib kelinib sotayotgan "tjoratchi"larga ham keskin choralar kórish vaqti yetdi. Chunki jonivorlarning kópchiligi yosh bolalar ovunchoǵiga aylanib, notógr boqilishi oqibatida halok bóldi. Ayni paytda Órta Osiyo toshbaqasini Ózbekiston Qizil Kitobiga zudlik bilan kiritib, uning eksportini taqiqlash, toshbaqalarni yashash hududlari brakonerlardan muhofaza qilish zarur. Buning uchun hozir harakat qilmoqdamiz. Shuningdek, jonivor yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo tógrisidagi Konventsiyaning ikkinchi ilovasiga va xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining Qizil róyxatiga yóqolib borayotgan hayvon turi sifatida kiritilgan,

Hozirgi vaqtda Ózbekiston hududining 18%ga yaqinini inson tomonidan ózgartirilgan landshaftlar tashkil qiladi. Hududning intensiv ózlashtirilishi ósimlik va hayvonot dunyosining kambaǵallashuvi, noyob tóqay, chól va toǵ ekotizimlarining yóq qilinishi, atrof-muhitning ifloslanishi, chóllanish, Orol dengizining ekologik falokati kabi salbiy oqibatlarga olib keldi.



Hozirgi toshbaqalarning tanasini ustki, pastki va yon tomondan pansir (kosa) qoplab olgan. Pansirning ustki tomondagisi karapaks, pastki tomondagisi plastron deyiladi, bular pay yoki suyak tutkich bilan bog'langan bóladi. Karapaks teri hisobidan hosil bólgan suyak plastinkalaridan tashkil topgan bólib, bularga qovurg'alar va tana umurtqalari qóshilib ketadi. Plastron ómrov suyagi va qorin qovurg'alariga gomolog bólgan suyak plastinkalaridan tuzilgan. Pansir ustki tomondan shox plastinkalar bilan krplangan, yumshoq terili toshbaqalarda shox plastinka yóq. Shox plastinkalarning chegarasi, odatda suyak plastinkalarning chegarasiga tóg'ri kelmaydi, bu toshbaqa kosasining mustahkamligini táminlaydi. Karapaks plastinkalari málum tartibda joylashadi: órtada uzunasiga yotgan bitta órta qator, uning ikki yonida juft yon qator bóladi, karapaksning chetiga esa qirra plastinkalari joylashadi. Plastron juft-juft suyak plastinkasidan va bularning oldingi jufti orasiga ponadek kirib olgan toq plastinkadan iborat. Toq plastinka tóshusti suyagiga gomologdir, oldingi juft plastinka ómrov suyagiga, qolganlari esa qorin qovurg'alariga gomolog bóladi. Quruqlikda yashovchi toshbaqalarning pansiri baland, gumbazsimon, suv toshbaqalariniki yalpoq, bóladi. Umurtqa pog'onasining bóyin va dum bólimlari harakatchan bólsa, qolgan qismlari harakatsiz bólib, karapaksga qóshilib ketadi. Kurak va korakoid suyaklari erkin. Jag'larida tishlari yóq lekin jag'lari ótkir qirrali shoh qin bilan koplangan. Oyoq, va bóyin muskullari yaxshi rivojlangan, lekin qorin muskullari yóqolib ketgan. Ópkalari juda katta va murakkab tuzilgan. Ópka ventilyasiyasi amfibiyalardagi singari og'iz bóshlig'i tagining tilosti apparati muskullari yordamida tebranishi hamda yelka va chanoq muskullarining faol tásviri orqali yuzaga keladi. Suvda yashovchi toshbaqalarda qóshimcha nafas olish organi bólib qon kapillyarlariga boy bólgan halqum ósimtalari hamda juft anal pufaklar xizmat qiladi. Toshbaqalar tropik va mótradil zonalarda tarqalgan. Dengiz, chuchuk suv, botqoq va quruqlikda hayot kechiradi. qattiq póstli tuxum qóyadi

Mahalliy gerpetefaunada tarqalgan chól toshbaqasi bázi tuzilish va xatti-harakatlar jihatidan botqoq toshbaqasidan farq qiladi. Toshbaqa chól toshbaqasi deb atalsa-da, u Janubiy Ustyurt va Órta Osiyoning yarim chóllari va chóllarida shuvoq, tamarisoy va saksovul tog'lari orasida yashaydi va tog 'etaklarida, shuningdek qovun va madaniy maydonlar yaqinida ham uchraydi.

Chól toshbaqasining orqa qalqoni botqoqdagi kabi, kóproq konveks va suvni tókish uchun mos emas. Chól toshbaqasining hayoti quruqlikda kechadi, barmoqlar orasida suzish pardalari yóq va suzolmaydi. Suvda chókib ketadi va yerda asta sekinlik bilan harakat qiladi. Oziq-ovqat (ósimliklar) olish uchun unga kóp chaqqonlik kerak emas. U suvsiz qola oladi. Chól toshbaqasining tirnoqlari keng bólib, ular bilan yerni osonlikcha qazib oladi. Qazib tashlab sug'orish zovurlari, tóg'onlar, temir yól qobiqlari zarar beradi.

Chól toshbaqasi qobig'ining rangi atrofdagi chól rangiga mos keladi va uni kópincha yirtqichlardan himoyalashga yordam beradi. Bundan tashqari, xavf tug'ilsa, u bóynini, panjalarini va qalqonlari orasiga tortadi va shu bilan tananing zaif qismlarini himoyalaydi. Biroq, bu odat uni har doim ham ólimdan qutqara olmaydi. Masalan, gyenalar toshbaqalar qobig'ini sindirib, góshtini yeyishadi, bundan tashqari, balandlikda havoda uchayotgan yirtqich qushlar ótkir kózlari bilan dasht toshbaqalarini payqashadi va erga tushib, ularni kuchli panjalari bilan ushlab olishadi, sóng ularni baland havoga kótarib otib yuborishadi. chólning toshli yuzasiga toshbaqalarni urishadi, buning natijasida ularning qalqonlari sinadi



va yirtqichlar toshbaqa tanasining yumshoq qismlarini yirtib tashlash imkoniyatiga ega bôladilar.

Ularning urg'ochilari qumda sayoz teshik ochib, ichiga 3-5 dona sharsimon tuxum qóyib, oq ohakli qobiq bilan yopib, sóngra orqa oyoqlari bilan kómadilar. Ular ushbu inlardan bir nechta qilishlari mumkin. Kuzga kelib, toshbaqalar tuxumlardan chiqib ketishadi, lekin ular bahorgacha yer ostida qoladi. Bahorda, er yuziga chiqqanda, yosh toshbaqalar kópincha tulki, bóri, burgut va qarg'alarining óljasiga aylanishadi. Efemerlarning bahorgi gullash davrida toshbaqalar kóplab ósimliklarni yeyishadi. Ular dala va yaylovlarga zarar yetkazadi, kókatlarni yóq qiladi. Yozgi qurg'oqchilikning boshlanishi bilan, shuningdek, qishki sovuq paytida, ozuqa yóqolganda, toshbaqalar uyquga ketadi.

Toshbaqalar asta-sekin ósib, 10 yoshga kelib jinsiy etuklikka erishadilar. 30 yoshida ular tana uzunligi 20 sm gacha, vazni 2,5 kg ga etadi. Yovvoyi tabiatning burchaklaridagi kaplumbağalar suvli ótlar (marul, momaqaymoq), tug'ralgan karam, sabzi, lavlagi, tarvuz va qovun pulpa bilan berilishi mumkin.

Markaziy Osiyo chól toshbaqasi Qozog'istonning janubiy mintaqalarida, Órta Osiyoning tekisliklarida, Eronning shimoli-sharqiy qismida, Afg'onistonda, Hindiston va Pokistonning shimoli-g'arbiy mintaqalarida tarqalgan. U loy va qumli chóllarda shuvoq, botqoq yoki saksovul, tog' etaklarida dengiz sathidan 1200 m balandlikka, daryo vodiylarida va qishloq xójaligi yerlarida yashaydi. Uning kóp joylarda soni kóp, ammo doimiy ravishda kamayib bormoqda, shuning uchun Chól toshbaqasi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan.

Órta Osiyo chól toshbaqasi ótgan asrning birinchi yarmidan boshlab kamayishni boshlagan. Ikkinchi Jahon urushi davrida uning góshtidan kóp miqdorda konservalar tayyorlashda foydalanilgan. 1950–1960 yillarda toshbaqa, asosan, iqtisodiy ehtiyojlar uchun yígilgan, biroq ochiq dashtda qishloq xójaligi rivojlanishi turlarning yashash joylari va soni sezilarli darajada kamayishiga olib keldi. 1960–1980 yillarda toshbaqaning mazkur turiga bôlgan qiziqishlarning ortishi sabab ular zoologik savdoga chiqarilgan. Órta Osiyo chól toshbaqasi (*Agrionemys horsfieldii*) zaif, himoyaga muhtoj tur sifatida Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro ittifoqining (TMXI) Qizil róyxatiga kiritilgan. Oxirgi 18 yil davomida qonuniy va noqonuniy ravishda jami 1.254.100 dona Órta Osiyo chól toshbaqasi tabiatdan olingan va eksport qilingan. Hozirda toshbaqaning tabiiy yashashi uchun yaroqsiz va ózlashtirilgan hududlarning umumiy maydoni 300 ming km² ni tashkil etadi. Manbalarda keltirilishicha, sónggi 60 yil mobaynida xójalik faoliyati yuritilishi natijasida toshbaqaning yashash joylari 1,5 million gektarga qisqarib ketgan. Bugunga kelib mazkur turning tabiiy populyasiyasini saqlab qolish maqsadida Ózbekiston Respublikasi Qizil kitobining yangi nashriga kiritildi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilip aytganda, toshbaqalar turli tuman sharoitlarga moslana olishi oziqsiz va suvsiz muhitga yaxshi bardosh bera olishi tufayli evolutsiya davomida hozirgi kungacha saqlanib kelayotgan sudralib yuruvchilar hisoblanadi. Ularning yaxshi himoya qalqoni dushmanlardan asray oladi. Shunga qaramasdan bugungi kunda kóplab toshbaqalar turlari himoyaga olingan. Bázi turlar esa butkul yóqolib ketish havfi ostida qolgan. Bunga sabab ularning ovchilar va brokanerlar tomonidan shafqatsizlarcha ovlanishi yashash arealining qisqartirilishi buzib tashlanishi hisoblanadi. Toshbaqalarni uy hayvoni sifatida boqish va ularning ekologiyasini yaxshi bilmasdan nobud qilish ham ular turlarining qisqarishiga sabab



bólmoqda. Toshbaqa tuxumlari va góshti iste'moli tufayli har yili juda kóplab ovlanadi. Hozirgi kunda saqlanib qolgan toshbaqalar uzoq umr kórichi bilan ham ajablantirib kelmoqda.

References:

1. J.L.Laxanov "Umurtqalilar zoologiyasi" Toshkent 2005
2. S.Dadayev, S.Tóychiyev, P.Haydarova "Umurtqalilar zoologiyasi Labaratoriya mashg'ulotlari" Toshkent 2006
3. "Ózbekiston Respublikasining Qizil kitobi" 2 jild Toshkent 2019
4. M.A.Jumanov "Zoologiya" Toshkent.2017
5. Z.Bekbergenova, R.T.Tleuov, G. Asenov, M.Jumanov, D.Qoshanov. "Qaraqalpaqstanniń haywanat dúnyası. Selene print. T. 2008.
6. Q.Qayıpbekov. Qaraqalpaqstan faunası (omırtqalı haywanlar) «Qaraqalpaqstan» 2009.
7. library.net
8. ziyonet.uz
9. Wikipedia.uz